



ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

Andijon viloyatida qurilish sohasini rivojlantirish

2023- YIL
YANVAR-FEVRAL

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

Qurilish ishlari hajmi,
mlrd so'mda



2023- yil yanvar-fevral oylarida, Andijon viloyatida jami **635,4** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan **89,7 %** ni tashkil etdi.




Yillar kesimida o'sish sur'ati
fevral oyi bo'yicha



Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati – bu, o'z-o'zidan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

Andijon viloyati qurilish ishlari

Shahar va tumanlar kesimida, mld so‘mda



Kapital qurilishning pudrat usuli qurilish jarayonida qatnashayotgan ikki tomon – buyurtmachi va bosh pudratchi (pudratchi) orasidagi munosabatlarni belgilab beruvchi qurilish pudrat shartnomalari asosida bajarilgan qurilish hamda boshqa ishlar shakli hisoblanadi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi.


Qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatkichlar shuni ko'rsatdiki:

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 76,6 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 93,5 foizga oshgan;

fugorolik obyektlarini qurish yo'nalishi 10,5 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 73,5 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 12,9 foiz ulushni va 84,8 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, foizda



- Bino va inshootlar qurish
- Fugorolik obyektlarini qurish
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari Hajm, mlrd so'm





Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2023- yil yanvar-fevral


Bajarilgan qurilish ishlaring katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **65,2 %** yoki **414,3 mld so'm** qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 9,6 mld so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 1,5 % ni tashkil etdi.



Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 302,8 mld so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 82,5 % ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 101,9 mld so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 16,0 % ni tashkil etdi.


Shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari

2023- yil yanvar-fevral

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
Andijon viloyati	414,3	100,0
Andijon sh.	160,3	38,6
Xonobod sh.	11,4	2,7
Oltinko‘l	18,0	4,4
Andijon	51,6	12,5
Baliqchi	7,4	1,8
Bo‘ston	16,9	4,1
Buloqboshi	7,1	1,7
Jalaquduq	15,2	3,7
Izboskan	13,5	3,2
Ulug‘nor	5,2	1,3
Qo‘rg‘ontepa	11,7	2,8
Asaka	14,9	3,6
Marhamat	18,3	4,4
Shahrixon	34,2	8,3
Paxtaobod	16,3	3,9
Xo‘jaobod	12,3	3,0

*hududlar bo‘yicha taqsimlanmagan hajmni qo‘sghan holda

2023- yil yanvar-fevral oylariga shahar va tumanlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Andijon shahri (160,3 mlrd so‘m), Andijon tumanida 51,6 mlrd so‘m), Shahrixon tumanida (34,2 mlrd so‘m) va Marhamat tumanida (18,3 mlrd so‘m) qayd etildi.



2023- yil yanvar-fevral oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari


Korxonalar turlari bo'yicha

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 1,1 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,8 % punktga kamayib, 75,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,5 % punktga ko'payib, 23,0 % ni tashkil etdi.

Jamiga nisbatan
ulushi.....◆



- Yirik qurilish tashkilotlari
- Kichik korxona va mikrofirmalar
- Norasmiy sektor

O'sish sur'ati



Bino va inshootlarni qurish

55,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari

92,3 %

Kichik korxona
va mikrofirmalar

101,3%

Norasmiy sektor


Bino va inshootlar qurilishi 2023- yil yanvar-fevral oylari uchun

Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)



MA'LUMOT UCHUN: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlaringning eng yuqori o'sish sur'ati Ulug'nor tumani (2022- yilga nisbatan 155,4%), Jalaquduq tumani (2022- yilga nisbatan 167,7%)ga to'g'ri keldi.


2023- yil yanvar-fevral oylarida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Shuningdek, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 5,7 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,4 % punktga ko'paydi.

kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 2,7 % punktga ko'payib 94,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 7,1 % punktga kamayib, 0,3 % ni tashkil etdi.



O'sish sur'ati



Fuqarolik obyektlarini qurish

328,9%

Yirik qurilish tashkilotlari

75,7 %

Kichik korxona
va mikrofirmalar

2,7 %

Norasmiy sektor


2023- yil yanvar-fevral oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati (mlrd so'm va foizda)



Hajm va o'sish sur'ati (oy ko'rsatkichlari)




MA'LUMOT UCHUN: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Izboskan tumani (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 3,4 m), Bo'ston tumani (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 284,5 %), Xo'jaobod tumani (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 166,9 m) va Buloqboshi tumani (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 160,0 %) va ga to'g'ri keldi.

2023- yil yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajaril-gan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 0,7 % punktga ko'paydi va 0,9 % ni tashkil etdi.

Qolgan 99,1 % kichik korxo-na va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.



O'sish sur'ati

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

366,8%

Yirik qurilish tashkilotlari


84,0 %

Kichik korxona
va mikrofirmalar


2023- yil yanvar-fevral oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shahar va tumanlar va oylik ko'rsatkichlari

Shahar va tumanlarning hajmi va o'sish sur'ati
(mlrd so'm va foizda)




Hajm va o'sish sur'ati
(oy ko'rsatkichlari)



MA'LUMOT UCHUN: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'ati Qo'rg'ontep tumani (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 453,6 %), Marhamat tumani (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 470,3 %), Baliqchi tumani (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 287,3 %) va Xonobod sh. (2022- yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 242,1 %)ga to'g'ri keldi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **15,9** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **619,5** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyyatdagi ulushi mos ravishda **2,5 %** va **97,5 %** ni tashkil etdi.



15,9
mlrd so'm
Davlat mulki

619,5
mlrd so'm
Nodavlat mulk

Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Xonobod shahrida (ushbu shahardagi qurilish ishlari umumiylajmining 100,0 foizi), Xojaobod tumanida (qurilish ishlari umumiylajmining 100,0 foizi) va Oltinko'l tumanida (ushbu tumanidagi umumiylajmining 98,3 foizi) qayd etildi.

2023- yil 2- mart holatiga qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- bino va inshootlar qurilishi 58,1 % ni tashkil etdi, o'sish sur'ati 2022- yilning mos davriga nisbatan 80,0 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlari qurilishi 11,0 % darajasida qayd etildi, o'sish sur'ati 108,5 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari 30,9 %, o'sish sur'ati 81,5 % ni tashkil etdi.

